

AKTYORDA HAQIQAT TUYG'USI VA ISHONCH

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i02.051>

N.R.Axmedova
O'zDSMI

Annotatsiya: Ushbu maqolada aktyorlik mahoratida eng kerakli bo'lgan sifatlar va haqiqat tuyg'usi, ishonch va ushbu sifatlarni rivolantirishdagi pedagogik bosqichlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: aktyor, obraz, sahna, haqiqat, ishonch, pedagogika, tuyg'u

THE SENSE OF TRUTH AND BELIEF IN ACTING

N.R.Akhmedova
UzSIAC

Abstract: This article discusses the most essential qualities required in acting, as well as the sense of truth, belief, and the pedagogical stages involved in developing these qualities.

Keywords: actor, character, stage, truth, belief, pedagogy, feeling

Bo'lajak aktyorlarni tarbiyalashda pedagog e'tibor berishi lozim bo'lgan, qolaversa aktyorda bo'lishi lozim bo'lgan eng muhim sifatlardan biri bo'lgan ishonch va haqiqat tuyg'usining shakllanishi va rivojlanishi kerakli jihatlardan biri. Shu munosabat bilan aktyorlik mahoratini oshiruvchi dars va mashg'ulotlarda avvalambor mana shu sifatlarni oshirishga qaratilgan mashqlarga alohida e'tibor berilishi lozim.

"O'zimiz va partnyorlarimiz ishongan narsa sahnadagi haqiqatdir", - deydi Torsov. Haqiqat ishonchdan, ishonch esa haqiqatdan ajralmasdir. Ular bir-birisiz yashay olmaydi, ularning ikkovisiz esa kechinma ham, ijod ham bo'lmaydi. Sahnada hamma narsa aktyor uchun ham, partnyor uchun ham, tomosha qilayotganlar uchun ham ishontirarli bo'lmog'i kerak. Hamma narsa sahnada ijod qilayotgan aktyor kechirayotgan tuyg'ularning hayotda ham bo'lishi mumkinligiga ishonch tug'dirishi lozim. Aktyor sahnada kechiradigan tuyg'ularining, xatti-harakatlarining haqiqiylikiga ishonch hosil qilmog'i lozim. Aktyor uchun doimo ichki haqiqat va unga bo'lgan ishonch zarurdir.

Aktyor ijodiy faoliyati vaqtida kimgadir taqlid qilmay, obrazga sun'iy yondashmasdan, yurakdan, o'z oldiga qo'ygan maqsadga muvofiq xatti-harakatda, aksariyat tomosha bilan emas, balki o'z sahnaviy hamrohi bilan munosabatda bo'lar

ekan, u o'zini obraz doirasida jonli hayot, haqqoniyat, ishonch "men borman" sharoitida saqlab qolgan bo'ladi. Aktyor sahnada haqiqiatda yashagan hisoblanadi. Chunki aktyor sahnaga o'z kamchiliklariga qarshi kurashish uchun emas, balki maqsadga muvofiq xatti-harakat qilmoq uchun chiqadi. Shu maqsadga erishgan aktyor soxtalikni va qalbakilikni yenggan hisoblanadi.

"Men borman"ning o'zi nima? U, men mavjudman, yashayapman, rol bilan bir xilda his qilyapman, fikr yuritayapman, degan ma'noni beradi. "Men borman" birikmasi hissiyot, tuyg'u, kechinma hosil qiladi. "Men borman" sahnadagi mutlaqo haqiqat mag'zidir. Sahnada "men borman" holatini yaratish uchun katta, mutloq haqiqatga erishmoq lozim. Qayerdagi, haqiqat, ishonch va "men borman" mavjud ekan, o'sha yerda chinakam insoniy kechinma mavjuddir. Bu hissiyotimiz uchun eng zo'r "imlovchidir".

Aktyor xatti-harakat qilayotganini bilmoq uchun o'ziga nisbatan "Kim uchun xatti-harakat qilyapman: o'zim uchunmi yoki tomoshabin uchunmi, yoki qarshimda turgan jonli odam, ya'ni yonimdagi sherigim uchunmi?" - savoli bilan murojaat qilmog'i lozim. Aktyor sahnaviy ijro davomida o'ziga baho bera olmaydi. Tomoshabin ham bunday huquqdan xoli. Unga faqat sahnaviy hamkori, sherigi baho berishi mumkin. O'zaro bir-biriga hamkor aktyorlar o'z tuyg'ulari, imo-ishoralari, yoki sahnaviy xatti-harakatlar orqali bir-biri bilan tomoshabinga sezdirmasdan suhbatlashadi. O'zaro kamchiliklarini to'g'irlashadi. Bu ham bizning san'atimizda o'z isbotini topib kelayotgan masalalardan biridir. Lekin bu masalaning o'zga bir tomoni ham borki, masalaning ortig'i tomoshabinga hurmatsizlikdir. Demakki aktyor sahnada avvalo bu masalaga o'rin qoldirmaslik kerak. Chunki bu masala haqiqat tuyg'usi va ishonchni yiroqlashtiradi. Tasavvurimiz, berilgan shart-sharoitdagi hodisa mezonlarini ichki ko'z bilan ko'rib, chin qalbdan his qilish va uning xatti-harakat muhitiga real kirib ketish mumkin emas. Shu sababli ham sahnaviy tasavvur elementining aktyor ijodidagi o'rnini va ahamiyatini chuqurroq tushuntirib ketish maqsadga muvofiqdir.

Aktyor sahna haqiqatiga bo'lgan talabi va soxtalik ahamiyatini hech qachon oshirib yubormasligi lozim. Birinchisiga bo'lgan qiziqish - haqiqatni haqiqat uchun o'ynash sun'iylikka olib keladi xolos. Bu soxtalikning eng yomonidir. Yolg'ondan haddan tashqari qo'rqish esa sun'iy ehtiyotkorlikni keltirib chiqaradi, bu ham sahnaviy "yolg'onlarning" eng yirigidir. Yolg'onga ham sahnadagi haqiqatga bo'lgan kabi osoyishta, adolat yuzasidan, ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak. Teatrda haqiqat - mumkin qadar o'ziga ishonch hosil qilmoq uchun artistning o'zi va partnyorini ishontirishga yordam bergani uchun va qo'yilgan vazifani ishonch bilan bajarishga ko'maklashgani uchun kerakdir. Agar yolg'onga oqilona munosabatda bo'linsa, undan ham foyda chiqarish mumkin.

Yolg'on - aktyorning qilmasligi kerak bo'lgan ish o'lchovidir.

O'quvchida haqiqat tuyg'usi to'g'ri rivojlanishi va mustahkamlanishi uchun o'qituvchi diqqat va qunt bilan ishlab, doimiy ravishda tekshirib borishi kerak.

Kuchingiz yetmagan va tabiatigingizga, mantiqqa, sog'lom aqlga to'g'ri kelmagan narsadan qoching! Bularning barchasi mayiblik, zo'rakilik, sun'iylik va soxtalikka olib boradi. Bular sahnaga qancha ko'p chiqsa haqiqat tuyg'usi uchun shuncha zarar, chunki soxtalik ularni buzadi va mayib qilib qo'yadi.

Sahnada soxtalik va yolg'onga odatlanishdan qo'rqing. Ularni ayovsiz ravishda yulib tashlang. Aks holda yovvoyi o'tlar o'sib, qalbingizdagi qimmatbaho zarur nihollarni bosib ketadi¹.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
2. Sayfullaev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. - 388 b.
3. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi.T.Xo'jayev tarjimai. "Toshkent" badiiy adabiyot nashriyoti, 1965 y. 232 b.

¹ Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi.T.Xo'jayev tarjimai. "Toshkent" badiiy adabiyot nashriyoti, 1965 y. 232 b.